

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8  
2023



Tosh o'rmoni  
(Navoiy viloyati)

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja

ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta

tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"  
jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi .....	6
<b>Muxiddin Kalonov</b> , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
<b>Jumayev Olimjon Sadulloyevich</b> , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
<b>Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha	
asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
<b>Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich</b> , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini	
jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
<b>Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li</b> , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi .....	34
<b>Mamaraximov Bekzod Erkinovich</b> , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlanish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
<b>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</b> , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
<b>Axmedov Sayfullo Normatovich</b> , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va	
innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
<b>Berdiyev Anvar Abduraxmonovich</b> , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati .....	56
<b>G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish .....	61
<b>Olimjanova Nigora Alisherovna</b> , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli.....	65
<b>Saydirasulov Laziz Alimovich</b> , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar .....	71
<b>Tulayev Mirzakul Salamovich</b> , kafedra dotsenti; <b>Axmedov Akbarali Sultonmurodovich</b> , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций .....	78
<b>Урдабаев Жарылқап Ермекбаевич</b> , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
<b>Махмудов Носир Махмудович</b> , д. э. н., профессор; <b>Фозилова Фирангиза Комиловна</b> , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali	
foydalanish zarurati.....	89
<b>Sherali Xolliyev</b> , kafedra o'qituvchisi	
Turizmnii rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni .....	94
<b>Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
<b>Xakimov Ziyodulla Axmadovich</b> , dotsent; <b>Axmadova Rayxona Jasurbek qizi</b> , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining	
innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
<b>Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi</b> , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan	
erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
<b>Abdiyeva Flora Botir qizi</b> , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar .....	114
<b>Abdullahayev Farxod Ozodovich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va	
monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari .....	119
<b>Hakimjon Hakimov</b> , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country .....	125
<b>Sanakulova Barnogul Rizakulovna</b> , Doctor of Economic Science, Professor;	
<b>Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli</b> , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
<b>Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi</b>	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution .....	133
<b>Mirziyo Sodikov Odiljon o'g'li</b>	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili .....	138
<b>Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li</b> , magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
<b>Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida .....	151
<b>Sharifi Ahmad Sakhrob</b> , mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны .....	156
<b>Суюнова Фотима Баходир кизи</b> , базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognози .....	161
<b>Xatamov Nurbek Ochildeyevich</b> , erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
<b>G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi</b> , doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане .....	174
<b>Жуманиязова Феруза</b> , PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalg qilish imkoniyatlari.....	179
<b>Mamatov Bahromjon Shavkatovich</b> , dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	184
<b>Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna</b> , mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
<b>Nilufar Sharipova</b> , PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar .....	197
<b>Nurillayev Jamoliddin Yarashevich</b> , doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
<b>O'roqov Mamurali Odil o'g'li</b> , tayansh doktarant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi .....	208
<b>Razzaqov Jasur Hamraboievich</b> , dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
<b>Рузиева Дилноза Абдусаматовна</b> , независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari .....	216
<b>Saydullayev Shaxzod Sherzodovich</b> , PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения .....	222
<b>Хажиев Бахтиёр Душабоевич</b> , dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari .....	227
<b>Adizov Sardor Rashidovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish .....	231
<b>Mamatov Sardor Axmatjonovich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
<b>Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li</b> , PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана .....	243
<b>Мирзахалилова Азизахон Алишеровна</b> , докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutslonal investorlar faolligini oshirish .....	249
<b>Sultanov Maxmud Axmedovich</b> , dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni .....	254
<b>Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li</b> , PhD; <b>Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики .....	259
<b>Отакулов Махамаджон Каримович</b> , PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	264
<b>Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li</b> , PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
<b>Eshmatov Sanjar Ashirqulovich</b> , mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari.....	272
<b>Gadoyev So'hrob Jumakulovich</b> , PhD, dotsent	
Vliyanie investitsionnoj politiki na innovacionnuyu deyatel'nost' v Respublike Koreya.....	277
<b>Алимова София Розумбаевна</b> , nezavisimyyi issledovatel'	
Hududlarda oliv ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'naliшlarini takomillashtirish.....	282
<b>Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich</b> , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potensialni rivojlantirish.....	290
<b>N. N. Ismatullayeva</b> , tayanch doktarant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna</b> , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
<b>Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna</b> , tayanch doktorant	
Formirovaniye kreditnogo portfela sovremenennogo kommercheskogo banka.....	304
<b>Жураева Нодира Фузулий кизи</b> , assistent kafedry	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'ortalashni takomillashtirish yo'llari .....	310
<b>G. Abduvosidova</b> , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
<b>Nazarov Shohbek Isroilovich</b> , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish.....	320
<b>Mamatov Axmetjon Atajanovich</b> , professor; <b>Allaberganova Zakir Gayibovich</b> , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budgetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari.....	327
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna</b> , PhD; <b>Eshonqulov Asliddin Mammatmurod o'g'li</b> , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli .....	330
<b>Norov Akbar Ruzimamatovich</b>	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi .....	335
<b>Xoliqov Ulug'bek Rustamovich</b> , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba .....	341
<b>N.N.Ro'ziyev</b>	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalg qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
<b>Astanov Sherzod Rustamovich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
<b>Nosirova Charos</b>	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari.....	364
<b>Irgasheva Gulbahor Sodiqovna</b> , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari .....	369
<b>Abduxamidova Gulxayo</b> , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili .....	374
<b>Xatamov Nurbek Ochildeyevich</b> , erkin tadqiqotchi	
Mezhduanal'nyi opyt razvitiya regionov putem privlecheniya investitsii cheres rynek kapitala.....	380
<b>Dadahanova Saida Makhhammadxon kizi</b> , doktorant	
Iskusstvennyi intellekt kak instrument upravleniya chelovecheskimi resursami .....	386
<b>Xайдарова Малика Шакирджановна</b> , prepodavatel' kafedry	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili .....	396
<b>S.T.Toshaliyeva</b> , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyatasi va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
<b>Ruzibayev Jahongir Nodirovich</b> , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
<b>Nabiiev Feruz Nurmurodovich</b> , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish .....	412
<b>Imomova Nodira Shavkatovna</b> tadqiqotchi, <b>Sultonov Mansur Qilichevich</b> PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
<b>Xashimova Naima Abitovna</b> , i.f.n., professor; <b>Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li</b> assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
<b>M.A.Saparova</b> , talaba	



# MILLIY TRANSPORT INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH

**Xashimova Naima Abitovna**

Toshkent davlat transport universiteti, i.f.n., professor

**Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li**  
assistant

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish, milliy transport tizimini rivojlantirishning zamonaviy bosqichlari, transport tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish yo'nalishlari, transport sohasini raqamlashtirish tizimi bilan birga logistik sarf-xarajatlarni pasaytirishga katta e'tibor qaratilgan. Bu esa yuk tashish jarayoni optimallashtirish imkoniyatini beradi.

**Kalit so'zlar:** yuk tashi, yuk tashini rejalashtirish, yuk tashini boshqarish, infratuzilma, nanotexnologiya, biotexnologiya, blokcheyn texnologiyasi.

**Аннотация:** В данной статье основное внимание уделяется совершенствованию национальной транспортной инфраструктуры, современным этапам развития национальной транспортной системы, направлениям использования цифровых технологий в транспортной системе, а также снижению логистических издержек наряду с цифровизацией системы транспорта. сектора. Это дает возможность оптимизировать процесс доставки.

**Ключевые слова:** транспорт, транспортное планирование, управление транспортом, инфраструктура, нанотехнологии, биотехнологии, технология блокчейн.

**Abstract:** This article focuses on improving the national transport infrastructure, the current stages of development of the national transport system, directions for using digital technologies in the transport system, as well as reducing logistics costs along with the digitalization of the transport system. sector. This makes it possible to optimize the delivery process.

**Key words:** transport, transport planning, transport management, infrastructure, nanotechnology, biotechnology, block-chain technology.

## KIRISH

Hozirgi vaqtida ishlab chiqarishni rivojlantirishda yuqori sifatli samaradorlikni ta'minlaydigan ilm-fanning so'nggi yutuqlarini (nanotexnologiya, biotexnologiya, global axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt va boshq.) iqtisodiyotga keng tadbiq etish, shu asosida zamonaviy iqtisodiyotning barqaror taraqqiyotini belgilovchi omillardan maqsadli foydalanish jarayoni kuzatilinmoqda. Bu o'z navbatida, raqamli texnologiyalarga ustuvorlik berish orqali namoyon bo'ladi.

Yangi texnologik ukladga o'tish iqtisodiyotning barcha tarmoqlari tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo qiladi. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash raqobatbardoshlikni oshirish shartlaridan biri hisoblanib, yangi texnologik tuzilmalarни ishlab chiqish, tegishli yo'nalishlar doirasida o'zlashtirilishi ta'minlash imkoniyatini beradi.

Iqtisodiyotning texnik-texnologik taraqqiyoti transport infratuzilmasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ushbu integratsion bog'liqlik ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirish, iqtisodiy makon va xududlarda iqtisodiy faoliigini ta'minlash samarali ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi yillarda global ilmiy-texnologik taraqqiyot ta'siri davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishida transport tizimlarining rolini sezilarli darajada ortdi. Bu o'z navbatida raqobatbardosh ko'rsatuvchi infratuzilmalarни rivojlantirish zaruriyatini yuzaga keltirdi.



Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Transport tizimi an'anaviy ravishda jamiyat ehtiyojlarini qondirish va aholining harakatlanishini ta'minlashga qaratilgan turli maqsadlar uchun tovarlar va yo'lovchilarning uzlusiz harakatini ta'minlaydigan transport elementlarining kompleks majmuasi hisoblanadi.

Bularga transport yo'llari, uzel va koridorlar, transport korxonalarini, transport vositalari, texnik inshootlar, qurilma, mexanizmlar va boshqalarni kiritish mumkin.

Transport tizimi bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lgan transportning barcha turlarini birlashtiradi, jumladan: quvur liniyasi, suv (daryo va dengiz), havo, temir yo'l, avtomobil. Infratuzilmaning har bir elementi moddiy-texnik bazasi mavjud bo'lgan boshqaruv tizimiga ega. Transport tizimlarini o'zgartirishning global tendensiylariga doir tahlil natijalari transport tarmoqlari faoliyatini jadal rivojlanishida ilmiy-texnologik taraqqiyotning yutuqlari, ilg'or texnika va texnologiyalarning paydo bo'lishi transport xizmatlarining intensiv samaradorligi va xavfsizligini oshirishga ta'sir ko'rsatmoqda.

Fikrimizcha, yuqoridagilar bilan bir qatorda milliy transport infratuzilmasini takomillashtirishda quyidagi larga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- multimodal va intermodal yuklarni tashish tizimlarini rivojlantirish;
- turli terminallar, transport-ombor komplekslari, tarqatish markazlari o'z ichiga olgan transport-logistika tuzilmalarini shakllantirish;
- axborot-boshqaruv texnologiyalari yordamida aqlii transport tizimlarini shakllantirish;
- yuqori tezlik va aniqlikdagi aloqa (temir yo'l, avtomobil yo'llari, shu jumladan, rivojlangan qoplamali);
- yuqori samarali innovatsion yuk vagonlari, tez yurar kemalar, elektr transport vositalari va boshqalar.

## TAHLILI VA NATIJALAR

Milliy transport tizimini rivojlantirishning zamonaviy bosqichi ularning istiqbolli yo'nalishlarini belgilaydigan bir qator xususiyatlardan tavsiflanadi. Transport tizimlarining rivojlanish tendensiya-lariga turli xil siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-geografik, ilmiy-texnik omillar katta ta'sir ko'rsatadi. Ular orasida:

1. Ishlab chiqarish texnologiyasi (Production technology) iqtisodiyot-ning turli tarmoqlari va faoliyat sohalarda chuqur texnologik o'zgarishlar amalga oshirilishi, mavjud biznes modellarini, tarmoqlar va jahon iqtisodiyoti rivojlanishini sezilarli darajada o'zgartirishi mumkin;
2. Raqamlari texnologiyalarni jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni nazarda tutuvchi ma'lumotlarni to'plash hamda qayta ishlash imkoniyatlarini beradi;
3. Urbanizatsiya jarayonlari ta'sirida vujudga kelayotgan muammolarga texnologik, axborot va kommunikatsiya yechimlarini topishga shu orqali aholi turmush farovonligini, hayot faoliyatni sifatini oshirishga xizmat qiladigan «aqlli shahar» (smart city) strategik konsepsiyasini ishlab chiqish;
4. Ekologik tahdidlar va resurslarning taqchilligi, shu jumladan, atrof-muhitning buzilmaydigan ta'sirini hisobga olgan holda tabiatdan foydalanishni jarayonlarini muvofiqlashtirishni ta'minlash;
5. Transport xizmatining ma'lum turlarini (yo'lovchi tashish, tovarlarni yetkazib berish va h.k.) prognozlashtirilgan qiymatini belgilashda iste'molchining transport xizmati qiymatini baholashda «yaxshi, arzon, tezroq» degan idrok, ong tasavvurini shakllanishi bir vaqtning o'zida transport sifati, narxi va tezligini baholash imkoniyatini beradi.

Aholi turmush darajasining shiddat bilan o'zgarishi inson uchun zarur bo'lgan vaqt omilini nazorat qilish, tejash imkoniyatini beradigan yangi qiymatni yaratadi. Vaqt omili iqtisodiy munosabatlardan doirasida ishlab chiqarish jarayonlarini muvofiqlashtirishning asosiy omili hisoblanadi.

Transport infratuzilmasiga raqamlari texnologiyalarning amalda keng qo'llanilishi iqtisodiyot, biznes va aholi ehtiyojlarini hisobga olgan holda transport tizimining samarali faoliyatiga doir istiqbolli yo'nalishlarni belgilaydi.

Transport tizimini rivojlantirishning hozirgi bosqichi innovatsion xususiyatlarga ega bo'lgan transport-logistika tizimi hamda qitisodiyotning yuqori sifatli infratuzilmaviy elementi sifatida e'tirof yetiladi. Bu, transport-logistika zanjirini barcha bosqichlarida yangi texnologik tartibdagi xizmatlarni joriy etish orqali qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatini beradi.

Yo'lovchi tashish sohasida multimodal transport tizimini joriy etish «uzluksiz» sayohat yo'nalishlarini, shu jumladan, «eshikdan-eshikgacha» tamoyili bo'yicha, marshrutni qulay rejalashtirish va chipta sotib olish (yagona elektron chipta), butun marshrut bo'ylab turli xizmat ko'rsatishni taqdim etishni nazarda tutadi.

Transport tizimlarini rivojlantirishning yuqorida ko'rib chiqilgan yo'nalishlarini amalga oshirish uchun tegishli transport infratuzilmasi talab etiladi. Bugungi kunda sanoat ishlab chiqarishning tizimli rivojlanish jarayonlari intellektual transport tizimi ta'sirida sanoat ishlab chiqarishni texnologik rivojlanish tendensiylariga ta'sir ko'rsatmoqda. Transport sohasini raqamlashtirish ishlab chiqarishning iqtisodiy asoslarini o'zgartirishga olib keladi. Ayni paytda transport sohasida raqamlashtirishning quyidagi asosiy yo'nalishlari mavjud:

- transport infratuzilmasi va ta'minot zanjirini (shu jumladan, omborxonalar va servis markazlarini) raqamlashtirish;



- ishlab chiqarish jarayonlarini robotlashtirish;
- boshqaruv tizimini keng ko'lamli avtomatlashtirish;
- avtopilot tizimlarini joriy etish.

Transport infratuzilmasini raqamlashtirishning har bir bosqichda ta'minot zanjiri dasturiy tizim orqali boshqariladi. Natijada, real vaqt rejimida butun transport tizimini boshqarishda xarajatlarni kamaytirish, asosiy bo'limgan xarajatlarni qisqartirish, transport sektorini rivojlanish ko'rsatkichlarini oldindan aytib berish imkoniyati yuzaga keladi (1.2-jadval).

#### 1.2-jadval: Transport tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish yo'nalishlari

Ta'sir yo'nalishi	Texnologiyalarni qo'llanilish ko'lami
Elektron hujjat aylanishi	Elektron chiptalarni joriy etish, yo'nalishlarga doir hujjatlarni masofadan qayta ishlash, «virtual ofislar» yaratish orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish
Masofaviy aloqa	Jonli aloqa uchun raqamli texnologiyalar tizimidan foydalanish
To'lovlarini qayta ishlash	Transport xizmatlarini amalga oshirish uchun mobil to'lov va mobil ilovalardan foydalanish
Bulutli texnologiyalar	Ma'lumotlarni sifat jihatidan yangi darajada qayta ishlash; "bigdata" texnologiyalaridan foydalanish orqali ma'lumotlarni tahlil qilish va yig'ish
Integratsiyalashgan transport boshqaruv tizimi	Transport boshqarish tizimini avtomatlashtirish orqali mijozning yuklarni boshqarish va nazorat qilish jarayonini tartiblash
Intellektual transport tizimi	Yo'l harakati boshqaruv tizimini avtomatlashtirish orqali transport tizimini rivojlanish jarayonlarini prognozlash, avtopilot tizimlarini qo'llab-quvvatlash
Logistik xizmatlarni yetkazib berish platformasi	Logistik xizmatlarni ko'rsatishga yo'naltirilgan raqamli platformani yaratish, shu jumladan chiptalarni bron qilish, yuklarni yetkazib berish uchun tashuvchilarni qidirishning optimal mashrutini tanlash

Transport xizmatlarini ko'rsatishni robotlashtirish tizimi allaqachon real amaliyotga joriy etilgan bo'lib, juda tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Biroq, eng ko'p mehnat talab qiladigan komponent sifatida omborxona (yuklarni qadoqlash va saqlash) va transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish jarayonlari hali ham qo'l mehnatini talab etadi.

Transport tizimida xizmat ko'rsatishning boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish uzoq vaqt dan beri rivojlanib bormoqda. Darhaqiqat, transport sektori birinchilardan bo'lib, boshqaruv jarayonlari avtomatlashtirilgan sohalardan biri hisoblanadi. Ammo, zamонави transport oqimlarining tezligi ta'sirida inson omilisiz avtomatlashtirilgan tizim malakali va puxta o'ylangan qarorlar qabul qila olmaydi.

#### 1.3-jadval: Transport sohasini raqamlashtirish tizimi

Texnologiya namunasi	Texnologiya funksiyalari
SARTRE	Masofadan boshqarish orqali yo'lovi transport vositalarini shakllantirish dasturi
Open Shuttle	Avtomatik tizim orqali interaktiv yuklarni qabul qilish
Pick by light	Transport vositalarining ishlash tizimini optimallashtirish maqsadida maxsus ko'rsatkich chiroqlaridan foydalanish
Put by Beamer	Avtomatik rejimda tovarlarni qabul qilish va tarqatishning ombor texnologiyasi
Avtomatlashtirilgan port komplekslari	Dengiz portlarida konteyner termenallarining avtomatlashtirilgan saqlash tizimlaridan foydalanish

Texnologik jihatdan avtopilot tizimlarini joriy etilishi transport tizimini rivojlantirishning dastlabki raqamli texnologiyasi hisoblanib, fuqarolik samalyotlari, dengiz yuklarini tashish jarayonida keng foydalanilgan.

Fikrimizcha, transport tizimini avtomatlashtirishning bevosita oqibatlari sifatida quyidagi tahdid va xavf-xatarlarni ham ajratib ko'rsatish o'rinni:

- Transport sohasida faoliyat olib borayotgan kasbi bo'yicha ish topa olmaydigan mutaxassislarni ishdan bo'shatish;
- sug'urta hodisasi ro'y berganda javobgarlik chorasi belgilashdagi qiyinchiliklar;
- dasturiy ta'mindagi texnik xatolik sababli transport vositasi ustidan nazoratni yo'qotish va boshqalar.



Shuningdek, ushbu texnologiyalarni joriy etish afzalliklari quyidagilarda orqali namoyon bo'ladi:

- 1) transport sektori samaradorligini oshirish (yoqilg'i xarajatlarini kamaytirish, baxtsiz hodisalarini kamaytirish, transport hodisalarini yuz berganda jabrlanganlar sonini kamaytirish), tashish paytida shikastlangan yuk hajmini qisqartirish;
- 2) avtomatlashtirilgan ish joylari hisobiga ish haqiga ketadigan xarajatlarini kamaytirish;
- 3) transportning to'xtab turish vaqtini qisqartirish;
- 4) inson omili ta'sirida ro'y berishi mumkin bo'lgan xato va kamchiliklar hajmini qisqartirish.

Transport tizimini raqamlashtirishda sun'iy intellekt (SI) texnologiyasi borgan sari transport uchun umumiy maqsadli texnologiyaga aylanib bormoqda. Raqamli texnologiyalardan foydalanishning umumiyligi afzalliklari transport tizimida ro'y berishi mumkin bo'lgan tizimli muammolarni samarali hal qilish imkoniyatini berishi bilan muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy iqtisodiy tizimda axborot texnologiyalarini qo'llash sohalari doimiy ravishda kengayib boradi. Raqamli texnologiyalarga eng yirik transmilliy korporatsiyalar tomonidan ustuvor ahamiyat berilishi, blokcheyn tizimini yaratish orqali ta'minot zanjirini qurishda kapital qo'yilmalar hajmini ortib borayotganligini ko'rsatmoqda. Bunday kompaniyalar qatoriga dasturiy mahsulot ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi "IBM", "Walmart" tarqatish tarmog'i, internet-tijorati yetakchisi "Amazon", "Unilever" va "Nestle" transmilliy kompaniyalarini kiritish mumkin.

Blokcheyn texnologiyalari asosida, temir yo'llarida yuk tashish samaradorligini imkoniyatlarini oshirish borasida chop etilayotgan qator xorijiy ilmiy nashrlarda ushbu texnologiyalar bilan bog'liq quyidagi masalalarga alohida e'tibor berilmoqda:

- temir yo'llarida yuk tashish tizimini blokcheyn texnologiyalari asosida tashkil etishning mohiyati va me-xanizmini aniqlash;
- blokcheyn texnologiyasida mayjud xavf-xatarlarni tadbirkorlik subyektlarining ishbilarmonlik darajasiga va biznes jarayonlarga ta'sirini baholash;
- yuk tashish biznesida blokcheyn texnologiyasiga asoslangan aqli sharhnomalar tizimini ishlab chiqish;
- yuk aylanmasida blokcheyn texnologiyasidan foydalanish bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish (logistik tizim zanjirini boshqarishda taqsimlangan reyestr tizimidan foydalanish) va bosh-qalar.

Temir yo'llarida blokcheyn texnologiyalari asosida yuk tashish tizimini ta'minot zanjiri orqali boshqarish, yuk tashish xizmatini ishonchiligi, barqarorligi, tizim faoliyatini tashqi muhitga moslashuvchanligini ta'minlash imkoniyatini beradi. Fikrimizcha, temir yo'llarda yuk tashish tizimini ta'minot zanjiri orqali boshqarishda blokcheyndan foydalanish quyidagi afzalliklarga ega:

- ta'minot zanjiri bo'ylab logistik sarf-xarajatlarni pasaytirish;
- logistik tizimning operatsion faoliyatida tizimli risklarni diversifikatsiyalash orqali risk xavfini pasaytirish;
- tovarlarni yetkazib berish va saqlash jarayonidagi yo'qotishlarni kamaytirish;
- tovarlarni ishlab chiqaruvchilar va ularni tarqatish jarayoni ishtiropchilari bo'yicha ma'lumotlar shaffofligi, ishonchiligi va xavfsizligini ta'minlash;
- logistik tizimga doir biznes jarayonlarning operatsion faoliyati bo'yicha ma'lumotlarning to'liq anonimligini ta'minlash;
- logistik tizimning ta'minot zanjirida yuqori darajadagi moslashuvchanlikka erishish;
- yuk tashish bo'yicha ruxsatnomalar va ularga ilova qilingan raqamli hujjatlar, shu jumladan sertifikatlar, litsenziyalarning cheksiz muddatda saqlanishini ta'minlash;
- tashqi savdo faoliyatida tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazishni operativ tizimini shakllantirish;
- logistik tizimning ta'minot zanjirida barcha ishtiropchilar o'rtaqidagi muvofiqlikni ta'minlash va boshqalar.

Jahon tajribasiga muvofiq mamlakatimiz amaliyotida rivojlanib borayotgan transport sohasining imkoniyatlari bilan birga o'ziga xos kamchiliklar ham ega. Ushbu muammolarni o'z navbatida temir yo'llar infratuzilmasi faoliyatini raqamlashtirish jarayonini tezlashtirishni taqozo etadi. Shuning uchun ham bu borada mayjud ayrim kamchiliklarni barataraf etish yo'llarini topish zaruriyat hisoblanadi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi" deb bejizga ta'kidlab o'tmagan edi. Shuni inobatga olgan holda aytish kerakki, bugungi kunda transport sohasining tezkorligi va shiddatli taraqqiyotida, yuk tashish xizmatlari bo'yicha tariflarni pasaytirish raqamli iqtisodiyot rivojlanishi bilan bevosita bog'liq.

Milliy transport infratuzilmasini rivojlantirish mamlakatimiz iqtisodiyoti oldida turgan dolzarb vazifalardan biri ekanligini hisobga olish, transport sohasining har bir tarmoq tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanishda keng joriy etish transport sohalari o'rtaqidagi integratsion hamkorlikni kengaytirish uchun xizmat qiladi. Xalqaro ekspertlarning xulosalariga ko'ra, transport infratuzilmasini yaxshilash, moslashuvchan tariflar qo'llash va yangi istiqbolli yo'naliishlarni shakllantirish hisobidan bizda tranzit salohiyatini hozirgi 7 million tonnadan 16



million tonnaga yetkazish imkoniyati mavjud” ekanligini alohida ta’kidlab o’tish o’rinli. Bu imkoniyatlarni amalga oshirishning bir vositasi sifatida raqamli iqtisodiyotning o’mini alohida ta’kidlashimiz lozim.

Milliy transport-infratuzilmasi faoliyatini raqamlashtirish, yuk va yo’lovchi tashish jarayonidagi murakkab vazifalarни belgilangan vaqtida hal qilish imkoniyatini berish bilan bir qatorda:

- transport kompleksining ekologik tozaligini oshirish maqsadida transport korxonalarining texnologik rivojlanish darajasi xavfsizligini ta’minlash;
- transport infratuzilmasi va transport vositalarining hayotiylik sikli mobaynida axborot almashinuv tizimining raqamli yechilarini ishlab chiqish;
- milliy va xorijiy savdo kompaniyalari uchun omborxona xizmati va logistika markazlar bo'yicha zaruriy ma'lumotlarni masofaviy yetkazish, ombor uskunalarini sotish va ijara olish, yuklarni ekspeditorlik, sug'urta qilish va bojxona rasmiylashtiruvi bilan bog'liq turli xizmat turlarini samarali tashkil etish imkoniyatini beradi.

O’zbekiston Respublikasida temir yo’l transportida raqamli texnologiyalar qo’llash, uni rivojlantirish, temir yo’l transporti tariflarining, tarkibiy qismlarga bo’linishini ta’minlash, nosohaviy moliyaviy hisobotlarni shaffofligini oshirish, yo’lovchi tashishning maqsadli modelini yaratish, komplayens-nazorat joriy etish, biznes model maqsadlariga javob beradigan yangi tashkiliy tuzilmani yaratish kabilarni o’z ichiga oladi.

Tahlillar shuni ko’rsatdiki, turli davlatlarda milliy raqamli strategiyalarini (MRS) boshqarishda mavjud yondashuvlar elektron hukumat xizmatlari sifatini yaxshilash, axborot-telekommunikatsiya infratuzil-masini rivojlanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog’liq xodimlarning bilim va ko’nikmalarini oshirish, xavfsizlik darajasini oshirish, ilmiy-tadqiqot ishlanmalari, innovatsiyalar va tadbirdorlikka ko’maklashishda elektron xizmatlar va axborotdan yanada kengroq foydalanishni ta’minlash yo’nalishlarni o’z ichiga oladi.

#### Adabiyotlar ro’yxati:

1. Белый О.В. Архитектура и методология транспортных систем / О.В. Белый, О. Г. Кокаев, С. А. Попов. – СПб.: Элмор, 2002. – 256 с.;
2. Бутов А.С. Транспортные системы. Моделирование и управление / А.С. Бутов и др.; под ред. А. С. Бутова. – СПб.: Судостроение, 2001. – 552 с.;
3. Вельможин А.В. Теория транспортных процессов и систем: учебник для вузов / А. В. Вельможин, В. А. Гудков, Л. Б. Миротин. – М.: Транспорт, 1998. – 167 с.;
4. Genkin Artem S., Mavrina Lyubov A. Blockchain plus “smart” contracts: benefits of application and arising problems [Blokchejn plus «умные» контракты: преимущества применения и возникущие проблемы]. Ehconomika. Biznes. Banki — Economy. Business. Banks, 2017, No. 2 (19)., 136 p.
5. <https://www.gazeta.uz/uz/2020/01/24/president-speech/>. Президент мурожаатномаси: асосий фикрлар.
6. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)



**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 8**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

